



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-noyabr

657-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 557-6-0-Q/24-son qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 557-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 557-6-0-Q/24-son qarori haqidada rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

talabgorlarga qo‘yiladigan talablar va ularning yutuqlari, ilmiy-ijodiy va amaliy ishlarini baholash mezonlari;

talabgorlarni tanlash bo‘yicha tuman (shahar), hududiy va respublika komissiyalari faoliyatini tashkil etish;

talabgorlarning hujjatlarini taqdim etish va ularni rasmiylashtirish tartibi;

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirishi;

o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish topshirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Y.Mamitaliyeva) manfaatdor bo‘lim va idoralar bilan birgalikda:

ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son qarori bilan tasdiqlangan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari - tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i v.v.b Y.Mamitaliyeva zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**